

QASHQADARYO VILOYATI YOQILG'I ENERGETIKA SANOATINING IQTISODIY GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Murodova D.S

Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya:** Maqolada Qashqadaryo viloyati sanoat tarmoqlarining shakllanishi va rivojlanishi, ishlab chiqarish, sanoat tarmoqlari tarkibi va hududiy tashkil etish, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etish shakllari, gaz va neft sanoati, sanoat tarmoqlarining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar tahlil qilingan.*

***Kalit so'zlar:** agrar-undustrial, sanoat ishlab chiqarishini hududiy tashkil etish, sanoat tarmoqlar tarkibi, sanoatning hududiy tarkibi, ishlab chiqarishni tashkil etishning ijtimoiy shakllari, diversifikatsiya, optimaltirish, iqtisodiy salohiyat, konsentratsiya*

ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ТОПЛИВНОЙ И ЭНЕРГЕТИЧЕСКОЙ ОТРАСЛИ КАШКАДАРЬСКОЙ ОБЛАСТИ

Муродова Д.С.

Преподаватель Каршинского государственного университета

***Аннотация:** В статье анализируются формирование и развитие отраслей промышленности в Кашкадарьинской области, структура и территориальная организация производства, отрасли промышленности, формы территориальной организации производства, газовая и нефтяная промышленность, а также изменения в территориальной структуре отраслей промышленности.*

***Ключевые слова:** аграрно-промышленный, территориальная организация промышленного производства, структура отраслей промышленности, территориальная структура промышленности, социальные формы организации производства, диверсификация, оптимизация, экономический потенциал, концентрация*

ECONOMIC GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE FUEL AND ENERGY INDUSTRY OF KASHKADARYA REGION

Murodova D.S

Teacher, Karshi State University

***Abstract:** The article analyzes the formation and development of industrial sectors in the Kashkadarya region, the structure and territorial organization of production, industrial sectors, forms of territorial organization of production, the gas and oil industry, and changes in the territorial structure of industrial sectors.*

Keywords: *agrarian-industrial, territorial organization of industrial production, structure of industrial sectors, territorial structure of industry, social forms of organization of production, diversification. optimization, economic potential, concentration*

Hozirda jahonning yetakchi mamlakatlarida sanoatni rivojlantirishda ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish jarayonini tadqiq etishda ishlab chiqarish salohiyatida innovatsion tarkibiy elementlar salmog'ini oshirish, sanoatning yangi istiqbolli tarmoqlarini ustuvor rivojlantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, hududlardagi iqtisodiy resurslarning notekis taqsimlanish holatlari hamda ularning salbiy ta'sirini kamaytirish, hududlararo iqtisodiy munosabatlarni optimallashtirish, turli iqtisodiy subyektlarning o'zaro manfaatli faoliyatini yo'lga qo'yishda klaster tizimidan foydalanish, ishlab chiqarish salohiyatidagi innovatsion tarkibiy elementlar salmog'ini oshirish, sanoatning yangi istiqbolli tarmoqlarini ustuvor rivojlantirish, tarmoqning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlash, oqilona foydalanish hamda ularni maqsadga muvofiq tartibga solish borasida muhim ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiyoti rivojlanib borayotgan agrar-industrial yo'nalishga ega. Yaqin kelajakda uning industrial-agrar xususiyatini olishiga tegishli imkoniyatlar mavjud. Hozirgi vaqtda viloyat yuksak iqtisodiy salohiyatiga ega bo'lgan mintaqalardan biri hisoblanadi. U respublika milliy iqtisodiyotida o'ziga xos "lokomotiv" vazifasini bajaradi. Bu yerda neft-gaz, tog'-kon kimyosi, paxta, g'alla, chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish yaxshi rivojlangan. Xususan, neft va gaz, paxta va g'alla yetishtirishda u mamlakatimizda birinchi, kimyoviy mahsulotlar (polietilen va b.) hamda chorvachilik bo'yicha ham oldingi o'rinlarning birini egallaydi.

2023 yil yakunlariga qaraganda, bu yerga mamlakat yalpi ichki mahsulotining 5,5, sanoat ishlab chiqarishining 4,3, qishloq xo'jaligi mahsulotining 9,4 foizi to'g'ri kelgan. Yalpi ichki mahsulot ulushiga ko'ra viloyat - 6, sanoatda - 8, qishloq xo'jaligida – 5 o'rinda turadi. Qashqadaryo viloyati respublika sanoatidagi ulushi bo'yicha 2018 yilda 5-o'rinda bo'lsa, 2022 yilga kelib Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Andijon, Farg'ona, Samarqand, Buxoro

viloyatlaridan keyin 8-o‘rinni egalladi (2.7-rasm). Viloyatning respublika sanoatidagi ulushi 2023 yilda 4,3 foizni tashkil qildi. Xuddi shunday “yalpi hududiy mahsulotda sanoatning ulushi” bo‘yicha esa Qashqadaryo viloyati respublikada 8-o‘rinni egalladi.

Bugungi kunda respublikamiz sanoatini rivojlantirishda mahalliy xom-ashyo va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash imkoniyatiga ega Qashqadaryo viloyatining sanoat salohiyatidan samarali foydalanish dolzarb iqtisodiy ahamiyat kasb etadi

Sanoat sohasida mehnatni ijtimoiy tashkil qilishning eng oliy turi konsentratsiyaning yuqori darajasi va shu asosda ijtimoiy ishlab chiqarishni uyushtirishning ilg‘or usullari ixtisoslashtirish, kooperativlashtirish va kombinatlashtirish, ishlab chiqarishni potok tizimi yordamida uzluksiz tashkil etish ustunlik qiladi.

Sanoat va ayniqsa, uning eng muhim sohasi bo‘lgan og‘ir sanoat mamlakatda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning asosi hisoblanadi. U moddiy-texnika vositalarini o‘zi va boshqa tarmoqlar uchun takror ishlab chiqarish bilan bir vaqtda jamiyat a‘zolari o‘rtasidagi ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlarini takomillashtirib ham boradi.

Sanoat qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishni qayta qurishning negizi hisoblanadi. Uni yangi texnika bilan ta‘minlash orqali fermer, shirkat, dehqon xo‘jaliklarini va boshqa shakllarda faoliyat ko‘rsatayotgan subyektlarni iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajaga ko‘tarishga, shahar bilan qishloq o‘rtasidagi muhim tafovutlarni yo‘qotishga, dehqon mehnatini industrial mehnatga aylantirishga yordam beradi.

Sanoat moddiy ishlab chiqarishning bosh tarmog‘i, iqtisodiyotning poydevoridir. Milliy iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta qurishga qodir bo‘lgan yirik mashinalashgan sanoatgina mustaqillikning birdan-bir moddiy negizi bo‘lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda viloyatda 100 dan ortiq yirik korxonalar ishlamoqda. Ayniqsa, mustaqillik yillari yoqilg‘i-energetika sohasi Qashqadaryo viloyatida eng

jadal rivojlangan, eng ko'p investitsiyalar kiritilgan soha bo'ldi. Bu tabiiy edi, chunki viloyat respublikaning asosiy yoqilg'i-energetika bazasi hisoblanadi. E'tiborlisi shundaki, chet ellik sarmoyadorlar viloyatning nafaqat neft-gaz va energetika sohasiga shuningdek, oziq-ovqat, yengil sanoat va boshqa tarmoqlariga ham investitsiyalar kiritilmoqda. Masalan, G'uzor tumanidagi 30 ming tonna bo'g'doyni qayta ishlaydigan un kombinatiga, "Yakkabog'teks", Shahrisabzdagi "Oqsaroy-to'qimachilik LTD", Qarshi shahridagi "Cotton Road" korxonalariga chet el sarmoyalari to'g'ridan-to'g'ri davlat kafolatisiz kiritilgan.

Viloyatda bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soniga ko'ra tahlil qilganda Qarshi shahri (6463 ta), Koson (2366 ta), Qarshi tumani (2355 ta) yetakchilik qilsa, Dehqonobod (1124 ta), Muborak (1124 ta) va Ko'kdala (984 ta) tumanlari quyi o'rinlarni band etadi

Viloyatimizda hozirgi kunda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 33064 tani tashkil etadi, shu jumladan sanoat yo'nalishidagi korxona va tashkilotlar soni 3776 ta (11,4 %) ni tashkil qiladi. Bunday turdagi korxona va tashkilotlarning soniga ko'ra viloyatda Qarshi shahri (687 ta), Kitob tumani (436 ta) va Yakkabog' tumanlari (336 ta) yetakchilik qiladi

Yoqilg'i-energetika sanoati viloyat sanoatining muhim tarmog'i bo'lib, neft va gaz qazib olish, elektroenergetika ishlab chiqarish hamda gazni qayta ishlash sohalarini o'z ichiga oladi. Viloyatda gaz sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi mamlakat yoqilg'i-energetika bazasini mustahkamlashga imkoniyat yaratadi. Natijada chetdan yoqilg'i keltirish hamda buning uchun ketadigan transport va boshqa harajatlar keskin kamaydi.

Viloyatda gaz va neft qazib olish 60-yillardan boshlandi, 1965-yilda viloyatda 164,2 mln m³ gaz, 29 ming t neft qazib olingan bo'lsa, 1970 – yilda 3232 mln m³ gaz, 334 ming t neft va 1520,1 ming t kondensat olindi.

Bugungi kunda mamlakatimizda qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 70 foizi, neftning qariyb 78 foizi, gaz kondensatining 80 foizi, g'allaning 13 foizidan ortig'i, paxtaning 14 foizdan ziyodi viloyat hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizda qazib chiqarilayotgan tabiiy gazning 70 foizi, neftning

qariyib 78 foizi, gaz kondensatining 80 foizi, g'allaning 13 foizidan ortig'i, paxtaning 14 foizdan ziyodi viloyat hissasiga to'g'ri kelmoqda. Qashqadaryoda qazib olinadigan gazning asosiy qismi quvurlar orqali viloyatdan tashqarida joylashgan iste'molchilarga yetkazib berilmoqda. Umuman Qashqadaryo viloyati gaz va neft sanoatining istiqboli ancha porloq. Chunki, hozirgi paytda viloyat hududida ko'plab istiqbolli gaz konlari aniqlangan. Bu yerda topilgan gaz konlari kondensatli bo'lib, tozalashni talab qiladi. Shu maqsadda 1972-yili Muborak gazni qayta ishlash zavodi qurildi. Hozirgi kunda bu korxonada 36,1 mlrd m³ gazni qayta ishlash natijasida xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan 188,4 ming t oltingugurt olinmoqda. SHo'rtangazini quvurlar orqali Taxiatosh GRESiga yetkazib berilishi natijasida har yili chetdan 100 ming t mazutni olib kelishga chek qo'yildi. Qoraxitoy-Qarshi gaz quvurining ishga tushirilishi Qarshi, Koson va Beshkent aholi punktlarini tabiiy gaz bilan ta'minlash imkonini berdi.

Elektr-energetika sohasida ham viloyatda respublika ahamiyatiga ega bo'lgan Talimarjon issiqlik elektrostansiyasining birinchi 800 MGVt quvvatli bloki ishga tushirildi. Uning barcha to'rt bloki 3,2 MGVt quvvatga ega bo'ladi. Taqqoslash uchun o'z vaqtida butun O'rta Osiyoda yirik hisoblangan Nurek GESi quvvati 1,2 MGVt ekani eslash kifoyadir. Bugungi kunda Talimarjon GESi 6 mlrd kVt / soat elektroenegriya ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi vaqtda Qashqadaryo viloyatining janubi-g'arbiy qismida joylashgan va zahirasining kattaligi jihatdan mamlakatimizda tengi yo'q SHo'rtanda gaz majmui qurilgan hamda oltingugurt kamroq bo'lgan tabiiy gazni energetika ehtiyojlari uchun mintaqalarga uzatish uchun Sho'rtan-Sirdaryo-Toshkent gaz quvuri ishga tushirilgan. Shuningdek, Gazli-Chimkent gaz quvuri qurilib foydalanishga topshirildi. Sho'rtan gaz majmuida jahonda birinchi bo'lib molekulyar elaklar qo'llanilmoqda.

Yoqilg'i-energetika majmuasining bundan keyingi rivoji viloyatda amalga oshiriladigan geologiya-qidiruv ishlarining samaradorligi, majmua mahsulotlarini qayta ishlash darajasiga bog'liq. Shu munosabat bo'lgan keyingi yillarda viloyatda

Zevarda, O'rtabuloq va Janubiy Tandırchi konlarini o'zlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sanoat korxonalari viloyat hududida ancha notekis joylashgan. Hozirgi kunda asosiy sanoat korxonalari Muborak, G'uzor, Qarshi, Shahrisabz shaharlarida joylashgan. Bu shaharlarda joylashgan sanoat korxonalari butun viloyatda ishlab chiqarilayotgan sanoat yalpi mahsulotining 80%dan ko'prog'ini bermoqda. Mavjud sanoat korxonalari Qarshi-G'uzor, Muborak hamda Shahrisabz-Kitob sanoat tugunlarida joylashgan.

Viloyatda 2023 yilda 10,2 ming tonnona xom neft, shag'al 47,5 ming tonna, chaqiq tosh (sheben) 28,9 ming tonna, 82,1 mln m/kub tabiiy gaz, 105,5 ming tonna gaz kondensati ishlab chiqarildi (1-jadval).

1-jadval

Ayrim turdagi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2022- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr</i>	<i>Farqi +/-</i>
Shag'al, ming t.	40,4	47,5	7,1
Neft, ming t.	20,4	10,2	- 10,2
Tabiiy gaz, mln. kub.m	521,2	82,1	- 439,1
Gaz kondensati, ming t.	112,5	105,5	- 7,0


Manba: Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2023 yil.

Viloyat sanoatining tarmoq tarkibida og'ir sanoatning boshqa tarmoqlari ulushi nihoyatda past. Viloyatda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining respublika sanoatidagi ulushi 4,3 foizni va hududlar orasida 8-o'rinni egallagan. Shuningdek, viloyat sanoati tarkibida tog'-kon sanoatining ulushi – 5,8 %, ishlab chiqariladigan sanoat 78,3 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoati – 15,4 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati - 0,5 foizni tashkil qilgan. Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmida viloyatning 3 ta hududi – Nishon

(29,7%), G‘uzor (13,5%) tumanlari va Qarshi shahri (13,4%) asosiy qismni tashkil qiladi (1-rasm).

1-rasm

**Qashqadaryo viloyati sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining
hududiy taqsimlanishi (2023 yil, foizda)**



Manba: Qashqadaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari, 2023 yil.

Viloyat iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan 90,0 trln so‘mlik investitsiyalar jalb etilib, shundan 50,9 trln so‘mi xorijiy investitsiyalarni tashkil etgan. 2021 yilda viloyatda “Uzbekistan GTL” zavodining ishga tushirilishi O‘zbekistonda yangi sanoat davrining ifodasi, deb baholanmoqda. Zavodning qiymati 3 mlrd 420 ming dollar bo‘lib, binolar maydoni 135 gektarni tashkil qilgan. Zavod yiliga 3,6 mlrd metr kub tabiiy gazni qayta ishlab, 307 ming tonna aviakerosin, 724 ming tonna dizel yoqilg‘isi, 437 ming tonna nafta, 53 ming tonna suyultirigan gaz tayyorlash quvvatiga ega. Bunday yirik majmua shu paytgacha jahonda faqat 4 ta davlatda – Qatar, Nigeriya, Janubiy Afrika Respublikasi va

Malayziyada barpo etilgan. Zavodda Yaponiya, Koreya, Singapur, AQSH, Germaniya, Italiya, Buyuk Britaniya, Rossiya, Xitoy kabi 24 ta davlatdagi 130 ga yaqin yetakchi korxonalarda tayyorlangan 10 mingdan ziyod uskunalar o'rnatilgan. Texnologik yechimlar, uskuna va jarayonlarni qo'llash uchun 140 ta xalqaro litsenziya va patentlar olingan.

Qashqadaryo viloyatida sanoat mahsulotining o'sish sur'ati respublika ko'rsatkichiga nisbatan ancha yuqori bo'lgan variatsiyalanish xarakteriga ega, jumladan, viloyatda sanoat mahsulotining eng yuqori o'sish sur'ati 2008 yilga (118,9 foiz) to'g'ri kelgan bo'lsa, eng quyi o'sish sur'ati 2010 yilga (96,8 foiz) to'g'ri keladi. Qator yillar davomida viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmining mutlaq o'sish tendensiyasi kuzatiladi. Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishining tarmoq va hududiy tarkibini tahlil qilish natijalari uning bir yoqlama xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Agar sanoatning tarmoq tarkibida tog'-kon sanoati, oziq-ovqat, to'qimachilik va kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish ustuvor o'ringa ega bo'lib, ularning yalpi sanoat mahsulotidagi birgalikdagi ulushi 2023 yilda 80 foizdan ko'proqni tashkil etgan bo'lsa, uning hududiy tarkibida uchta hudud – Nishon, G'uzor va Qarshi shahri salmoqli ulushga ega (ularning birgalikdagi ulushi 56,6 foizga teng). Agar Qashqadaryo viloyati sanoat ishlab chiqarishni tumanlar kesimida tahlil qilinsa, uning turli sur'atlarda rivojlanganligining guvohi bo'lish mumkin. Xususan, viloyatning eng yirik sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi tumanlari – Muborak va G'uzor tumanlari hamda Qarshi shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarish 2010-2023 yillarda viloyat ko'rsatkichiga nisbatan past sur'atlarda o'sgan. Agar 2010 yilga nisbatan 2023 yilda viloyat sanoat mahsuloti joriy narxlarda 3,1 martaga o'sgan bo'lsa, Muborakda 1,8 marta, Qarshi shahrida 2,3 marta va G'uzor tumanida 2,85 marta o'sgan. Boshqa barcha tumanlarda sanoat ishlab chiqarishining o'sishi viloyat ko'rsatkichidan yuqori bo'lgan. Ayniqsa, Nishon (29,5 marta), Dehqonobod (15,5 marta), Qarshi (13,7 marta) va Kitob (12,5 marta) tumanlarida sanoat ishlab chiqarishi yuqori sur'atlarda o'sgan

Viloyatning sanoat strategiyasi yuqori texnologiyalarga asoslangan va sanoat klasterlari shaklida tashkil etiladigan tayanch o'sish nuqtalari, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlovchi hududiy sanoat ishlab chiqarishini, hududlarda tashkil etiladigan kichik sanoat zonalari, ularga xizmat qiluvchi kasanachilik va hunarmandchilik asosida tashkil etiladigan sanoat ishlab chiqarish subyektlarini o'z ichiga oladi.

Viloyat hududida sanoat ishlab chiqarishini mutanosib rivojlantirish maqsadida tumanlarning mineral-xomashyo resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, ishlab chiqarish va bozor infratuzilmalarining rivojlanganlik darajasi, mehnat resurslari hamda asosiy kapitalning miqdori va sifati kabi ustun omillarga qaratish hamda viloyat oziq-ovqat sanoati hamda foydali qazilmalarni ishlab chiqarishida tumanlararo qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda Qashqadaryo viloyatida qayta ishlovchi sanoat tarmoqlarining rivojlanishi oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari hamda qishloq xo'jaligi, o'rmonchilik va baliqchilik sohalarining rivojlanishiga olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, qayta ishlovchi tarmoqlarining rivojlanishi xizmatlar sohasining taraqqiyotiga ham kuchli ta'sir etadi (bank, sug'urta, aloqa xizmatlari, savdo va transport). Ayniqsa, xizmat ko'rsatishning bir nechta tarmoqlari qayta ishlovchi sanoatga bevosita bog'liq bo'lib, jumladan, sanoat tovarlarini iste'molchilarga yetkazish orqali mazkur faoliyat turi rag'batlantiriladi. Shuningdek, qayta ishlovchi sanoat ilmiy-tadqiqot, ulgurji va chakana savdo, avtomobillarni ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanishiga ham yaxshigina ta'sir etadi.

Qashqadaryo viloyati sanoatining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar quyidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

- ✓ Muborak tumani sanoatining bir tomonlama xarakterga ega ekanligini hisobga olib, ushbu tumanda sanoatning boshqa tarmoqlari, xususan neft qisman yirik sanoat korxonalariga xizmat ko'rsatuvchi kichik va o'rta sanoat korxonalarini rivojlantirish, ishlab chiqarishning tugallangan

xarakterga ega bo'lishini ta'minlash asosida tumanning ixtisoslashuv darajasini chuqurlashtirish;

- ✓ Qarshi shahrining mavjud iqtisodiy, tabiiy va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda bu yerda sanoatning yuqori texnologiyaga asoslangan, ilmtalab tarmoqlarini rivojlantirish va shu asosda sanoat ishlab chiqarishining diversifikasiyalashuviga erishish;
- ✓ mineral xom ashyo resurslariga boy hududlar — Kitob, Yakkabog', Dehqonobod va G'uzor tumanlarida mavjud xom ashyoni qayta ishlashga asoslangan sanoat korxonalarini barpo etish va rivojlantirish;
- ✓ deyarli barcha tumanlarda qishloq xo'jalik xom ashyosini qayta ishlovchi sanoat korxonalarini barpo etishni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- 1.Soliyev A va boshqalar Mintaqaviy iqtisodiyot. –T., 2003.
- 2.Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi.-T.:Universitet, 2014, 404 b.
- 3.Soliyev A., Nazarov M., Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanishi . –T.: “Mumtoz so'z”, 2010.
- 4.Soliyev A.S.Iqtisodiy geografiya nazariya, metodika va amaliyoti. Toshkent:Kamalak,2013,184.b.
- 5..Murodova D.S. Воymurodov S. Городские резиденции Кашкадарьинской области и изменения их местоположения. "Экономика и социум" №5(96) 2022. с/535-545
- 6.Murodova D.S.Основные особенности демографической ситуации в Кашкадарьинской области. Экономика и социум” 1 (92) 2022. с/ 72-78
- 7.Murodova D.S Характеристика природного населения Кашкадаринской области. Экономика и социум” 4 (83) 2021.226-230 b
- 8.Murodova D. S. Geographical features of the population distribution// Proceedings of International Conference on Educational Discoveries and Humanities Hosted online from Plano, Texas, USA. Date: 1 st March, 2023. P. 1-6
- 9..Муродова Д. Экономико- географические особенности населения Кашкадаринской области. ”Экономика и социум” № 2(81) 2021. с/ 55-58
- 10.Murodova D.S..Economic geographical factors affecting the formation of city addresses. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal . Vol. 12, Issue 11, November 2022 . В 29-34
- 11.Муродова Д,С, Хужамова С.Б.Теоретико-методологические аспекты изучения миграционных процессов. Экономика и социум” №4 (95) 2022 с/ 174-178
- 12.Murodova D.S.Main Characteristics Of The Demographic Situation AndEconomic And Social Development Of Kashkadarya Region. Eurasian Journal of History, Geography and Economics. Belgiya .Volume 16 2023 yil В 32-35
13. Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. Qarshi-2024.
- 14.O'zbekiston sanoati /2018-2021/ Промышленность Узбекистана.О'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi.Toshkent-2022,150 b.